# O'ZBEKISTONDA TA'LIM KLASSTERI VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

**Rustamov Azizbek Madaminjonovich**
*Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti*
**Ruzmatov Botir Shermatovich**
*Jizzax politexnika instituti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yengil sanoati sohasida innovatsion ta'lim klaster tizimini yaratish va joriy etish boyicha ma'lumotlar keltirilgan. Ta'lim va ishlab chiqarish uzviy bog'liqligi natijasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga zamin yaratiladi.*

**Kalit so'zlar***: klaster, ta'lim, ishlab chiqarish, innovatsion klaster.*

**Аннотация:** *В данной статье представлена информация о создании и внедрении инновационной образовательной кластерной системы отрасли. Взаимозависимость образования и производства создает основу для подготовки конкурентоспособных кадров.*

**Ключевые слова***: кластер, образование, производство, инновационный кластер.*

**Abstract***: This article provides information on the creation and implementation of an innovative educational cluster system in the industry. The interdependence of education and production creates the basis for the training of competitive personnel.*

**Key words:** *cluster, education, production, innovation cluster.*

Ta'lim klassteri va xususiy tadbirkorlik subyektlari mamlakatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy o'zgarishlarga befarq qaray olmaydi, chunki ularning ijtimoiy qatlam, o'rta mulkdorlar sinfi sifatida shakllanishiga yuqoridagi o'zgarishlar mohiyatiga, yo'nalishiga bevosita bog'liq ekanini biladi. Shuning uchun ham ular siyosiy partiyalarning faoliyatida qatnashadilar, goho o'zlari ham birlashib ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida siyosiy maydonga chiqadilar.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda tadbirkorlik klassteri bilan shug'ullanish uchun zarur bo'lgan baza, huquqiy-me'yoriy asos yaratildi. Klaster biznes vakillarining ta'lim klassteriga bog'lash ularni o'z vaqtida moliyaviy mablag' bilan ta'minlash uchun qo'shimcha imkoniyatlar ishga solindi. Darvoqe, mamlakatimizda inson manfaatlari yechimi uchun aynan klaster biznesni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Bozor iqtisodiyoti chuqurlashuvi sharoitida tadbirkorlik, eng avvalo, moliyaviy mablag' sarfini hajmini kam talab etuvchi, qisqa muddatlarda kutilgan foydani keltiruvchi tarmoqlar hisoblanadi. Bu jarayon jamiyatda klaster korxonalarning ravnaq topishiga olib keladi. "Mutaxassislarning fikricha, Yaponiyaning jahondagi iqtisodiy nufuzining oshishida va "yapon mo'jizasi" da biznes hal qiluvchi rol o'ynadi. Yaponiyadagi birgina qayta ishlash sanoatida 6,5 mln. korxona faoliyat ko'rsatib, ular ushbu sohadagi jami korxonalarning 99 foizini tashkil etadi.

Bu korxonalarda 40 mln.dan ortiq kishi band. Bu ish bilan band aholining 81 foizi biznes korxonalarida faoliyat ko'rsatadi demakdir." Binobarin, jahon iqtisodi tajribalarida biznesning tadbirkorlikni rivojlantiruvchi muhim omillardan ekanligi o'z tasdig'ini topgan.

Ta'lim klasteri va xususiy tadbirkorlik (tadbirkorlik subyektlari yoki tadbirkorlik faoliyati) iqtisodiy demokratiyaning keng tarqalgan shakllaridir. Fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asosini yaratayotgan mazkur faoliyat Respublikamiz yangi O'zbekiston davlatimiz tomonidan alohida qo'llab-quvvatlanmoqda.

Tadbirkorlik ota-bobolarimizga xos xislatdir. O'lkamizning Qadimgi Xitoy, Qadimgi Hindiston, Bobil, O'rta yer dengizi atrofidagi xalqlar, Yevropa davlatlari bilan o'rnatgan iqtisodiy va madaniy aloqalari tadbirkorlikni taqozo etgan. Buyuk ipak yo'li aslida tadbirkorlik namunasi, xalqimizning turli davlatlar va qit'alar bilan o'rnatgan iqtisodiy, madaniy aloqalarining, shu jumladan, tadbirkorligining ham ifodasidir. Amir Temurning quyidagi so'zlari ham bu fikrimizni tasdiqlaydi: "Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi bo'lgan, azmi qat'i, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan afzaldir".

Shunday yondashishni biz O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda ham kuzatamiz. "Tadbirkorlik faoliyat (tadbirkorlik), – deyiladi unda, – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyatdir". Bu o'rinda shaxsiy tashabbusga urg'u berilayotgan bo'lsada, qolgan jihatlar tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy tomonlarini hisobga oladi.

Ta'lim klassteri va xususiy tadbirkorlik shaxsiy tashabbus va manfaatlarga asoslanadigan faoliyat turidir. Demak, uning aniq subyektlari va faoliyat doiralari mavjud. Mazkur belgilarni ko'rsatmay ta'lim klassteri va xususiy tadbirkorlikning o'zini ham tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinliklari kafolatlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga:

– qonunda belgilangan tartibda muomala layoqati cheklanmagan O'zbekiston Respublikasining har qanday fuqarosi;

– fuqarolar guruhi (sheriklar), shu jumladan davlat, kooperativ va boshqa korxonalarning mehnat jamoasi;

– qonunlarda ko'zda tutilgan vakolatlar doirasida boshqa ajnabiy davlatlarning fuqarolari yoki yuridik shaxslari, shunidek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;

– aralash mulk subyektlari kiradi.

Agar mazkur subyektlarni tashkiliy-huquqiy nuqtai nazardan konkretlashtirsak quyidagi faoliyat turlari yuzaga keladi:

– yuridik shaxs tashkil qilmagan holda jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi;

– xususiy tadbirkorlik faoliyati;

– kichik biznes (kichik korxonalar);

– aksionerlik jamiyatlari, cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar va boshqalar;

– agrar sohada – dehqon-fermer xo'jaligi asosida tadbirkorlik;

– ijara va jamoa xo'jaliklari asosidagi tadbirkorlik;

– chet ellik sheriklar bilan qo'shma korxonalar tuzish orqali tadbirkorlik.

Ko'rinib turibdiki, ta'lim klassteri va xususiy tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy sohaning deyarli barcha yo'nalishlari bilan bog'liq.

U bilan davlat korxonalaridan tortib to chet ellik fuqarolar bilan tuziladigan qo'shma korxonalar, ularning mehnat jamoasi shug'ullanishi mumkin. Ammo bu O'zbekistonda ta'lim klassteri va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos rejasi, strategiyasi borligini inkor qilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim klassteri va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdan strategik maqsadi mamlakatimizda iqtisodiy demokratiyani rivojlantirish orqali o'rta mulkdorlar sinfini barpo qilishdi. Chunki, mustaqil iqtisodiy taraqqiyot yo'limizning asosichisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlayotgandek: "Dual ta'lim yoshlarni jamiyatdagi o'rnini oshirish ish joylarida kasbiy ko'nikmalarini rivojlantiradi deb takidlagan".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil duval ta'limni institutda tashkil etilishi alohida ahamiyat kasb etdi. Shuni alohida qayd etish o'rinliki, 2017 yil 19-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muxofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi va biznesning qonuniy manfaatlari muhofazasini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyati tubdan takomillashtirilishini nazarda tutadi.

Tadbirkorlik subyektlarining javobgarligini liberallashtirish hamda tadbirkorlar bilan bevosita muloqot qilish yuzasidan muammo va kamchiliklar mavjud. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash masalalarida ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishning yangi tizimini yaratish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, tadbirkorlarning huquqiy ongi va savodxonligini oshirish maqsadida, ommaviy axborot vositalarida ko'rsatuvlar tashkil etish, bukletlar va tarqatma materiallar chop etish, tadbirkorlik subyektlari faoliyati bilan bog'liq normativ-huquqiy xujjatlarni o'zida mujassam etgan, foydalanishga qulay bo'lgan elektron resurslar, portallar, mobil dasturlar hamda elektron huquqiy maslahatxonalarni tashkil etish, respublikamiz tumanlari va shaharlarida aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, sudyalar, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlari hamda advokatlar bilan hamkorlikda tadbirkorlik subyektlari bilan muntazam ravishda uchrashuvlar, davra suhbatlari, seminar-treninglar

o'tkazib turish, tadbirkorlarga yangi qabul qilingan qonunlar, amaldagi qonun hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar yuzasidan tushuntirishlar berib borish ham shaxsning islohotlardagi faolligini oshiradi.

Bozor iqtisodiyotini chuqurlashuv sharoitida Respublikamiz demografik xususiyatlarini xisobga olib ish olib borilishi lozim. Ba'zi sohalar ishga yaroqli kishilarning ilmiy asosda ish bilan ta'minlanmaganligi, mehnat malakalari talab darajasida bo'lmaganliklari, malakasi oshirilmaganligi inobatga olinmadi. Yaqin o'tmishda yuz bergan bu kabi ijtimoiy kamchiliklardan saboq chiqarish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichlarida ishchi kuchiga bo'lgan talab va takliflarni, xulosalarini hisobga olish zarur. Bu o'rinda, nisbatan past darajadagi kasb ko'nikmasiga ega bo'lgan yoki kasbga o'rgatilmagan talaba yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularga munosib ish o'rni topishga yordam berish, raqobatbardosh kadrlarni ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor berildi. Yangi mehnat bozorining vujudga kelishi chog'idagi bu kabi holatlarni maqsadi, tadbirkor deb ataluvchi shaxsning shakllanishi, balki ana shu ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni ham ertangi kunning ongli va fidoyi yoshlarni, o'z ishining haqiqiy ustasi bo'lgan ishbilarmonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy samara bilan olib borilayotgan islohotlar tufayli mulkchilikning mohiyati va shakllari o'zgarib, mehnat bozorida ham tub ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Buning natijasida ijtimoiy amaliyotda an'anaviy qadriyatlarga o'z manfaatlari nuqtai nazaridan yondashuvchi yangi ijtimoiy qatlam-mulkdorlar sinfi shakllanmoqda. Shakllanayotgan mulkdorlar sinfi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy sohalarida tobora o'z o'rni, o'z mavqeyiga ega bo'lib bormoqda. Tadbirkorlar mansub bo'lgan mulkdorlar sinfi shakllanib bo'lgach, aholi tarkibidagi ijtimoiy qatlamlarda keskin tafovutlar paydo bo'la boshladi. Binobarin: "Sanoatda ham, iqtisodiyotning barcha sohalarida mulk haqiqiy egasi qo'liga o'tishi kerak. Odamlar ongiga mulkka egalik xissini singdirish lozim. Fond birjalari, qimmatli qog'ozlar bozorlarining faoliyati odamlar ongiga egalik xissini tarbiyalashga xizmat qilishi darkor.

Mamlakatimizda tadbirkorlikning rivojlanishi uchun munosib huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoit yaratildi, tadbirkorlik davlat tomonidan har tomonlama, jumladan, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini, iqtisodiy faoliyatni, mehnat erkinligini, mulk shakllarining xilma-xilligi va teng huquqliligini hamda ularning qonunlar bilan himoyalanishiga qaratilgan. Shuningdek, talabalarning ijtimoiy himoyasi, munosib hayot kechirishi va rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Science for Students of Leather Technology/ R. Reed/ United Kingdom. Pergamon. 1st Edition 1966. 288 p.
2. Tadbirkorlik huquqlarini himoya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining hujjatlari. –T.: Adolat, 2002. – 7-8 b.
3. http://savdosa'noat.uz
4. Ta'lim: ideallar va qadriyatlar (tarixiy va nazariy jihatlar) Ed. Z.I. Ravkin. - 1995. -361 p.
5. Kumunjiev K.V. Rivojlanishning bilim asoslari. Qo'lyozma, Ulyanovsk, 1997. - 82 p.